

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qayumova Odina Buvarayim qizi

Guliston davlat universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili va o'qish savodxonligi fanining ahamiyati va takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, texnologiya, og'zaki va yozma nutq, kompetensiya, interfaol metod, o'quv-bilish faolligi, savodxonlik, yondoshuv, o'qituvchi, innovatsiya, o'quvchi.*

Jamiyatning ma'naviy salomatligini ta'minlashda ta'lim – tarbiya o'chog'i bo'lgan maktab muhim rol o'ynaydi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharafli o'qituvchilik va murabbiylikdir. Har bir ustoz, har bir pedagog yosh avlodni ko'p asrlik milliy madaniyatimiz va tariximiz, shuningdek zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida tarbiyalash ishiga o'z hissasini qo'shishi, samarali maktab poydevorini qurishi, mustahkamlashi lozim.

Ma'lumki, maktablarda o'quvchilarga o'qitiladigan har bir fan yosh avlodning har tomonlama komil, bilimli jamiyatga kerakli kadr bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yosh avlodning kelajagi uchun muhim poydevor vazifasini o'taydi. Poydevorning qay darajada mustahkam bo'lishi bevosita o'qituvchi hamda boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili va o'qish savodxonligi fani muhim ahamiyatga ega fanlar sirasiga kiradi. Ushbu fan avval alohida fanlar sifatida o'qitilgan bo'lsa, hozirda ular bir fan sanaladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda xalqaro standartlarga tayangan holda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning ta'lim sohasidagi kichik bir namunasi sifatida o'qish va ona tili fanlarining birlashganligini aytib o'tish mumkin. Umuman olganda, ushbu fanlar

bir-biriga nihoyatda yaqin fanlar hisoblanadi. Ularni alohida o'qitish esa o'zini oqlamasdi. Bu ikki fanni birlashtirishi boshlang'ich sinflardagi fanlarni ixchamlashtirgan hamda yanada integratsiyalashuviga olib kelgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchilarda tilga doir to'rt ko'nikma: og'zaki nutq, yozma nutq, o'qish va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratiladi. Shu bilan birga ona tili va o'qish fanlarining integratsiyasi natijasida o'quvchida tanqidiy fikrlash, taxmin qilish, munosabat bildirish, tahlil va sintez qilish, olgan bilimlarini amaliy hayot bilan bog'lash kabi ko'nikmalar shakllanadi. O'qituvchi o'quvchilarda ona tili va o'qish

savodxonligi faniga oid bilimlarni shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishi zarur. Ushbu vazifalar bajarilishi orqali o'quvchilarga muayyan kontekstda tinglash, o'qish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalariniva shu bilan bir qatorda grammatika qoidalarini amalda qo'llashga yordam beradi. Ular quyidagilardan iborat:

- o'qish va ona tili fanlarini integratsiya qilish;
- tinglab tushunish, o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq, shu jumladan grammatika qoidalari va so'z boyligiga mutanosib ravishda e'tibor qaratish;
- o'quvchi yangi ko'nikmalarni amalda uch bosqich orqali mustaqil qo'llay olishi (o'qituvchi namuna beradi, o'quvchi o'qituvchi yordamida amalda sinab ko'radi va o'quvchi mustaqil bajaradi);
- yozish ko'nikmasiga oid mashqlarni bajarishdan avval sinfda muhokama qilish uchun vaqt va yo'nalish berish;
- takrorlash va baholash darslarini o'z ichiga qamrab olish;
- maqsadli yozishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni olib borish;
- o'qituvchi inklusivlikni ta'minlash maqsadida turli darajadagi o'quvchilarni qamrab oluvchi tayanch topshiriq va vazifa berilishi;
- o'quvchilarda til ko'nikmalarini kundalik hayotda qo'llash imkonini rivojlantirish.
- yozish jarayonining bosqichlari (reja tuzish, qoralama matn yozish, tekshirish, tahrirlash va taqdim etish) ni o'rgatish.
- turli xil maqsadda yozish ko'nikmalarini rivojlantirish (hisobot, xat, hikoya, she'r va boshqa matnlarni yozish);[1, 21-b]

O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini ongini o'stirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim. Fikrini o'stirish, dunyoqarashini shakllantirish, kelajakda o'zbek tilini mukammal biladigan savodxon bolani tarbiyalash ona tili va o'qish savodxonligi fanining asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bola fikrining kengayishida soda so'zlardan murakkab so'zlarga o'tib borishi yosh xususiyatlariga moslab davlat ta'lim standartlari asosida joylanganligi juda muhimdir. Darslarni to'g'ri va samarali tashkil qila olish o'qish samaradorligini oshiradi, hamda o'quvchilarga ma'naviy ozuqa beradi.

Boshqa fanlarda bo'lgani kabi ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ham axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni olib borish ta'lim sifatini oshishiga hamda o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli ona tili va o'qish savodxonligi va boshqa darslarda ham axborot texnologiyalaridan foydalanish davr talabi hisoblanadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarda ta'lim olishda ijodiy munosabatni uyg'otadi va bu o'quvchilarda ijodkorlik qobilyatini

shakllantiradi, tafakkurini oshiradi, o'quvchi mavzu yuzasidan yangi fikrlarni bildirishga va o'zlashtirishga ruhan tayyor bo'ladi.[3, 45-b]

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodvonligi darslarida turli innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarda faol harakat va qiziqish uyg'otiladi. Ta'lim jarayoni, uning rivojlanishi va samarali kechishi ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ishonchi asosida qurilgan ochiq muloqotiga bog'liq. Dars jarayonidagi metodlar esa bu muhitni mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi. Metodlar guruhlarda ishlab mashq qilishga odatlantiradi va uncha ko'p vaqtni olmaydi. Jamoaviy ishlash davomida o'quvchilar faolligi oshadi va darsga nisbatan diqqat-e'tibori kuchayadi. Misol tariqasida quyidagi metodni aytib o'tishimiz mumkin.

“Skaffold Fidbek” – O'qituvchi ma'lum bir mavzu yuzasidan savol beradi. O'quvchilar esa javob berishadi. O'qituvchi har bir o'quvchining bergan javobi asosida ma'lumot to'playdi. Bunda o'quvchining javobi noto'g'ri bo'lgani uchun rad etilmaydi balki, aksincha, uning to'g'ri javobi shunchaki qabul qilinmaydi. O'qituvchi o'quvchidan bu javobni qanday topgani haqida so'raydi va to'g'ri javobga yo'naltiradi. Ushbu metodni darsda qo'llash orqali o'quvchilardagi bilim, ko'nikmalar mustahkamlanadi hamda jamoa oldida o'z fikrini erkin ayta olish ko'nikmasi shakllanadi.[5, 1-b]

Xulosa qilib aytganda, bugungi har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoa holida ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarova R., Musaev U., Musaev P., Yusupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T.: “Fan”, 2015. – 85-86-b.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: “Fan”, 2018. – 160 b.
3. Usmonov S. Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. nomz diss. avtoref. – T.: 2014. – 24 b. Usmanov
4. Tarbiya. Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ul muharrir A.M.Majidov. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010. – 528 b.
5. www.ommalashtirish.uz